



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

### **SANOAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI**

Raxmonov Otabek

Mustaqil tadqiqotchi

[raxmonov\\_o@bk.ru](mailto:raxmonov_o@bk.ru)

#### **Annotatsiya:**

Ushbu tezisda sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari tadqiq etilgan. Unda raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar, xususan, boshqaruv samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion faoliyat va moliyaviy barqarorlik masalalari yoritilgan. Shuningdek, mazkur omillarni o'zaro uyg'un holda qo'llash sanoat korxonalarining raqobat ustunligini ta'minlashning muhim sharti ekanligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** sanoat korxonasi, raqobatbardoshlik, tashkiliy-iqtisodiy asoslar, boshqaruv samaradorligi, moliyaviy barqarorlik, raqobat ustunligi.

#### **Kirish**

Hozirgi globallashuv va bozor munosabatlari chuqurlashib borayotgan sharoitda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish masalasi milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish, mahsulot sifati va eksport salohiyatini oshirish, ichki va tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallash sanoat korxonalarining raqobat ustunligini belgilovchi asosiy mezonlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Sanoat korxonalarida raqobatbardoshlik ko'p jihatdan ularning tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish darajasi,



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

innovatsion faoliyati hamda iqtisodiy mexanizmlarining takomillashganlik holatiga bog‘liqdir. Shu bois mazkur yo‘nalishda tashkiliy-iqtisodiy asoslarni chuqur o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish nafaqat ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, balki zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish, xarajatlarni maqbullashtirish, marketing faoliyatini kuchaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va innovatsion rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shuning uchun ham ushbu mavzu iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, sanoatni diversifikatsiyalash va hududiy rivojlanishni jadallashtirish jarayonlarida alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar sharhi**

Iqtisodchi olimlar tomonidan sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish masalasi turli rakurslardan tadqiq etilgan. Ayrim tadqiqotlarda raqobatbardoshlikning nazariy asoslari va uni belgilovchi omillar yoritilgan bo‘lsa, boshqalarida korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion rivojlanish hamda moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, mazkur yo‘nalishda raqobatbardoshlikni baholash ko‘rsatkichlari, uni oshirish mexanizmlari va strategik yondashuvlar bo‘yicha ham turli ilmiy qarashlar shakllangan.

Jumladan, D. Kosimovanning (2019) ilmiy qarashlarida sanoat korxonalarida mahsulot raqobatbardoshligini oshirish masalasi kompleks yondashuv asosida talqin etiladi. Muallifning fikricha, raqobatbardoshlik faqatgina mahsulot narxi bilan emas, balki uning sifati, sotish usullari hamda iste‘mol qiymati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab iqtisodiy ko‘rsatkichdir. Ushbu yondashuvning muhim



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

jihatida shundaki, unda korxonalar faoliyatining natijasi alohida bir omil bilan emas, balki tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy omillarning uyg'unligi orqali baholanadi. Bizning fikrimizcha, muallifning ushbu qarashi sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda tizimli boshqaruv zarurligini asoslab beradi. Ayniqsa, zamonaviy uskunalardan foydalanish, resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish va kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha ilgari surilgan fikrlar amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Biroq ushbu yondashuvda raqobatbardoshlikni baholashning aniq mezonlari va ularning o'zaro bog'liqligi yanada chuqurroq o'zgarib berilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

T. Dzhukh va hammualliflari (2021) korxonalar raqobatbardoshligini kengroq doirada, ya'ni korxonaning bozor sharoitida raqiblariga nisbatan ustun mahsulot va xizmatlarni taklif qila olish qobiliyati sifatida izohlaydilar. Mualliflar tomonidan raqobatbardoshlikni baholashda iqtisodiy salohiyat, bozor ulushi, moliyaviy barqarorlik, kreditga layoqatlilik, ishlab chiqarish va sotuv quvvatlari, ilmiy-tadqiqot salohiyati kabi ko'rsatkichlarning ajratib ko'rsatilgan tadqiqotning ilmiy qiymatini oshiradi. Ayniqsa, innovatsiyani korxonalar raqobatbardoshligini oshiruvchi markaziy omil sifatida e'tirof etilishi bugungi sanoat taraqqiyoti talablariga to'la mos keladi. Bizningcha, mualliflarning ushbu yondashuvi sanoat korxonalarini faqat ishlab chiqaruvchi subyektlar sifatida emas, balki bozor, moliya va innovatsiya bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab tizim sifatida ko'rishga imkon beradi. Shu bilan birga, mazkur qarashlarda tashqi institutsional muhit, davlat qo'llab-quvvatlovi va tarmoq xususiyatlarining ta'siri nisbatan kamroq yoritilganini ham qayd etish joiz.

T. Khalimon (2017) raqobatbardoshlikni oshirishda moliyaviy omillarning o'rniga alohida urg'u beradi hamda bu jarayonda formal model va usullardan foydalanish zarurligini asoslaydi. Muallifning "moliyaviy ta'minlangan raqobatbardoshlik strategiyasi" haqidagi qarashi e'tiborga molik bo'lib, unda



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

korxonaning raqobat ustunligi moliyaviy resurslardan qay darajada oqilona va samarali foydalanishiga bog'liqligi ko'rsatib beriladi. Ushbu yondashuv ayniqsa kapital sig'imi yuqori bo'lgan sanoat korxonalarini uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki moliyaviy barqarorlikning sustligi, qarz yukining ortishi yoki investitsion resurslarning yetishmasligi raqobatbardoshlikni pasaytiruvchi asosiy xavflardan biridir. Shu bilan birga, muallifning yondashuvi ko'proq moliyaviy tarkibiy qismlarga tayanadi, natijada marketing, boshqaruv sifati, inson kapitali va innovatsion madaniyat kabi nomoliyaviy omillar ikkinchi planga tushib qoladi. Demak, bu yondashuvni kompleks modelning muhim tarkibiy qismi sifatida qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

J. Horvathova va hammualliflari (2020) esa raqobatbardoshlikni moliyaviy ko'rsatkichlar orqali o'lchashga harakat qilgan bo'lib, ular tezkor to'lov qobiliyati, savdo-xarajatlar nisbati, yalpi foyda va qisqa muddatli majburiyatlar o'rtasidagi bog'liqlik hamda EVA ko'rsatkichidan kompleks mezon sifatida foydalanadi. Mazkur yondashuvning afzalligi shundaki, u raqobatbardoshlikni aniq sonli indikatorlar asosida baholash imkonini beradi. Ayniqsa, EVA ko'rsatkichining qo'llanishi korxonaga nafaqat foyda olayotganini, balki qo'shimcha iqtisodiy qiymat yaratayotganini ham aniqlashga xizmat qiladi. Bizning fikrimizcha, ushbu metodika sanoat korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilishda juda qulay va amaliy ahamiyatga ega. Biroq mualliflarning yondashuvida raqobatbardoshlik asosan moliyaviy natijalar bilan cheklanib qoladi. Holbuki, zamonaviy sanoat korxonasining bozordagi ustunligi ko'pincha texnologik yangilanish, mahsulot innovatsionligi, servis sifati va boshqaruv moslashuvchanligi bilan ham belgilanadi. Shu sababli ushbu yondashuvni integral baholash tizimining muhim, ammo yagona bo'lmagan elementi sifatida baholash to'g'ri bo'ladi.



## International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

### **Tahlil va natijalar muhokamasi**

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish masalasi ko'p qirrali, murakkab va o'zaro bog'liq omillar ta'sirida shakllanuvchi jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayonni faqat bitta yo'nalish yoki alohida bir omil doirasida tushuntirish yetarli emas. Chunki bugungi bozor munosabatlari sharoitida korxonalar raqobatbardoshligi uning nafaqat ishlab chiqarish hajmi yoki mahsulot sifati bilan, balki boshqaruv tizimining samaradorligi, resurslardan foydalanish darajasi, innovatsion salohiyati, moliyaviy barqarorligi hamda tashqi bozordagi o'zgarishlarga moslasha olish imkoniyatlari bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayrim olimlar sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni ta'minlashda tashkiliy-iqtisodiy va texnologik omillarga ustuvor ahamiyat beradi. Ularning fikricha, korxonada samarali boshqaruv tizimini shakllantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini oqilona tashkil etish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish hamda xarajatlarni kamaytirish raqobat ustunligini shakllantiruvchi asosiy shartlardan hisoblanadi. Haqiqatan ham, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, resurs tejovchi texnologiyalarni qo'llash va mahsulot sifatini oshirish korxonaning bozordagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, sanoat korxonalarida faoliyatida texnologik yangilanishning tezligi ko'p jihatdan ularning uzoq muddatli raqobatbardoshligini belgilab beradi.

Boshqa bir guruh tadqiqotchilar esa raqobatbardoshlikni oshirishda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini asosiy omil sifatida ko'rsatadi. Ularning yondashuvida korxonaning to'lovga qobiliyatligi, rentabellik darajasi, kapitaldan foydalanish samaradorligi, investitsion jozibadorligi va moliyaviy xavflarni boshqarish imkoniyatlari alohida o'rin egallaydi. Bu yondashuv ham o'z navbatida ilmiy va amaliy jihatdan asosli



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

hisoblanadi. Chunki moliyaviy jihatdan barqaror bo‘lmagan korxonalar ishlab chiqarishni kengaytirish, innovatsiyalarni joriy etish, zamonaviy uskunalarni xarid qilish yoki yangi bozorlarni egallash imkoniyatiga to‘liq ega bo‘la olmaydi. Demak, moliyaviy resurslarning yetarliligi va ulardan samarali foydalanish raqobatbardoshlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shu bilan birga, raqobatbardoshlik masalasini faqat tashkiliy-texnologik yoki faqat moliyaviy nuqtai nazardan baholash ma’lum darajada tor yondashuvni yuzaga keltiradi. Bizning nazarimizda, sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini tadqiq etishda ushbu yondashuvlarning har biridan kompleks ravishda foydalanish lozim. Chunki korxonalar raqobatbardoshligi bir vaqtning o‘zida samarali boshqaruv, innovatsion faoliyat, resurslardan oqilona foydalanish, moliyaviy barqarorlik, marketing strategiyasining puxtaligi va bozor talablariga moslashuvchanlik orqali shakllanadi. Aynan shu omillarning uyg‘unlashuvi korxonaga ichki va tashqi bozorda barqaror faoliyat yuritish, raqobatchilarga nisbatan ustunlikka erishish va uzoq muddatli rivojlanishni ta’minlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, zamonaviy iqtisodiy sharoitda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi faqat ichki resurslar va boshqaruv sifati bilan emas, balki tashqi iqtisodiy muhit, bozor kon’yunkturasi, iste’molchilar talabi, davlatning sanoat siyosati va investitsion qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari bilan ham bevosita bog‘liqdir. Shu sababli raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishda korxonaning ichki imkoniyatlari bilan bir qatorda tashqi omillar ta’sirini ham inobatga olish zarur. Bu esa masalani yanada tizimli va strategik yondashuv asosida o‘rganishni talab etadi.

Shundan kelib chiqib, sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishda tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy va innovatsion omillarni yagona tizim sifatida ko‘rib chiqish ilmiy va amaliy jihatdan eng



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

maqbul yondashuv hisoblanadi. Bunday yondashuv korxonalar faoliyatining barcha muhim jihatlari qamrab olish, mavjud muammolarni chuqur aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha kompleks choralarni ishlab chiqish imkonini beradi. Natijada korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, mahsulot sifati yaxshilanadi, xarajatlar qisqaradi, investitsion faollik kuchayadi va bozor talablariga moslashuv darajasi ortadi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish jarayoni ko'plab o'zaro bog'liq omillar ta'sirida shakllanishini ko'rsatdi. Shu sababli ushbu masalani tadqiq etishda alohida omillarni emas, balki ularning o'zaro uyg'unligi va ta'sirini inobatga olgan holda yondashish maqsadga muvofiqdir. Aynan kompleks yondashuv sanoat korxonalarining uzoq muddatli raqobat ustunligini ta'minlash, ularning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshirish hamda samarali rivojlanish mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Dzhukh T., Mykhailenko O., Alipatova M. (2021). Increasing the competitiveness of the enterprise. Black Sea Economic Studies.
2. Horváthová J., Mokrišová M. (2020). Business Competitiveness, its Financial and Economic Parameters. Montenegrin journal of economics, 16, 139-153.
3. Khalimon T. (2017). Influence of Financial Factors on Improving of Enterprise Competitiveness. Accounting and Finance, 127-132.



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

- 
4. Sobirovna D., O'rinboyevich A. (2019). Directions for increasing product competitiveness in industrial enterprises. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR).